

## **OTM – mahalla hamkorligi loyihalari amalda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldag'i "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938 sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4602-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli qarolarida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot intsitutining "Oila huquqi va gender tengligi" bo'limi tomonidan "Oilada zo'rovonlikni oldini olish" va "Obod va xavfsiz mahallani shakillantirishda tomorqa madaniyatini rivojlanirishning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqish" mavzularida qisqa muddatli ilmiy loyihasi (2020-yil noyabr - 2021-yil aprel) da institutimiz tomonidan Xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengash raisi p.f.d, professor Z.Ismailova, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ul t.f.n., dotsent v.b. N.Holiqovalar ishtirop etib kelmoqdalar. Ular tomonidan loyiha loirasida "Baxtli yashash siri", "Mahallalarda tomorqa madaniyatini riqqlantirish" mazular yuzasidan institutga biriktirilgan mahallalarga chiqib oilalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil etildi.



Bu uchrashuvlarimiz Toshkent shahar va Toshkent viloyatida yashab turgan oilalar bilan tashkil etildi. Tashrifdan maqsad, bir tomonidan oilali qizlar va ularning oila a'zolari bilan suxbat qilish, baxtli yashash sirlari bilan o'rtoqlashish, qaynona-kelin munosabatlarida kelinlarning vazifalari va burchlari, er-xotin munosabatlari, qolaversa kelinlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy qarashlari, huquqiy savodxonligi masalalariga oid bolsa, ikkinchi tomonidan tomorqalaridagi yerlardan qanday foydalanish, ularga ekinlarni, mevali daraxtlarni ekish tartibi, madaniyati va ularni baxorga yerkarni tayyorlashga xos bo'lgan fikrlar bilan o'rtoqlashish bo'ldi. Bunday uchrashuvlarni tashkil qilish nafaqat oila a'zolariga balkim biz tomonimizdan ular bilan tanishish, muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish bo'yicha izlanishlar olib borishimizga turki bo'ldi desak mubolaqa bolmaydi albatta. Loyihalar doirasidagi amaliy natjalarni olib borilayotgan tadqiqot ishlarimiz bo'yicha erishilgan yutuqlarda ko'ramiz degan fikrda qolamiz.

**TIQXMMI matbuot xizmati**